

QUL UBAYDIYNING ADABIYOTGA QO‘SHGAN HISSASI.

Farg‘ona davlat universiteti Filologiya

fakulteti 23.90A guruh talabasi

Jo‘rayeva Ruhshona

Anotatsiya

Ushbu maqolada Shayboniylar sulolasining yirik vaki Ubaydullaxonning Movarounnahr ilm-fani va adabiyotining rivojiga qo‘shgan hissi yoritiladi. Ubaydullaxonning uch tilda ijod qilgani, Sharq adabiy an‘analari va Yassaviy hikmatnavisligini davom ettirgani, shuningdek, ilm ahli va madrasalar faoliyatiga ko‘rsatgan e‘tibori haqida ma‘lumotlar beriladi. XVI asrda shakllangan adabiy muhitning o‘ziga xos jihatlari tahlil qilinib, Ubaydullaxon merosining tarixiy ahamiyati ko‘rsatib o‘tiladi.

Kalit so‘zlar: Ubaydullaxon, Ubaydiy, Shayboniylar, Movarounnahr adabiyoti, hikmat, adabiy muhit, ilm-fan, XVI asr, shoir-hukmdor, Sharq an‘analari.

Shayboniylar sulolasi hukmronlik qilgan XVI asr Movarounnahr tarixida nafaqat siyosiy o‘zgarishlar, balki ilm-fan va madaniyatning yuksalishi bilan ham ajralib turadi. Ayniqsa, sulolaning eng yorqin vakillaridan biri — Ubaydullaxonning faoliyati o‘sha davr ma‘naviy hayotida beqiyos o‘rin tutadi. Ubaydullaxon nafaqat davlat arbobi, balki iste‘dodli shoir, madaniyat homiysi, sharq adabiy an‘analarini davom ettirgan ijodkor sifatida o‘z nomini tarixga muhrlagan.

Uning siyosiy sahnadagi faoliyati bilan bir qatorda, adabiy merosi, ilm ahliga bo‘lgan hurmati, bilim maskanlarini qo‘llab-quvvatlashi Movarounnahrda ma‘naviy hayotning jonlanishiga olib keldi. Shu bois Ubaydullaxon faqat o‘z zamonasining emas, balki keyingi davrlar madaniy taraqqiyotiga ham ta‘sir ko‘rsatgan shaxs hisoblanadi.

Ubaydullaxonning adabiyotdagi o‘rni

Ubaydullaxon “Ubaydiy”, “Qul Ubaydiy” taxalluslari bilan ijod qilgan va turkiy adabiyot tarixida o‘ziga xos maktab yaratgan shoirlardan biridir. Uning ijodi bir necha jihati bilan e’tiborli:

1. Uch tilda ijod qilgan shoir

Ubaydiy o‘zbek, fors-tojik va arab tillarida mukammal she’rlar yaratgan. Har uch tilda devon tartib bergani uning adabiy saviyasi naqadar yuqori bo‘lganidan dalolat beradi.

2. Sharq adabiy an‘analarining davomchisi

Uning she’rlari Sa’diy Sheroziy, Hofiz, Umar Xayyom, Jomiy, Navoiy kabi buyuk adiblarning an‘analariga asoslanadi. Ubaydiy o‘z davrida bu ijod maktabini davom ettiribgina qolmay, uni yangi g‘oyalar bilan boyitdi.

3. Yassaviy hikmatnavisligining davomchisi

Ubaydiy Xoja Ahmad Yassaviyning tasavvufiy g‘oyalariga katta hurmat bilan qaragan. Uning hikmatnavislik yo‘nalishida yozgan asarlari bu an‘anani davom ettirgan muhim badiiy yodgorliklardandir.

4. Ijtimoiy-siyosiy mazmundagi she’riyat

Ubaydiy ijodida davlat boshqaruvi, hayotning o‘tkinchiligi, adolat, insonlik kabi mavzular keng o‘rin olgan. Shoir an‘anaviy lirik mavzulardan tashqariga chiqib, o‘z davrining muammolariga ham badiiy yondashuv bilan murojaat qilgan.

Ubaydullaxon davrida ilm-fan va madaniyatning ravnaqi

Ubaydullaxon hukmronlik qilgan davr Movarounnahrda ma’rifat va madaniyatning yuksalish davri bo‘ldi. Samarqand, Buxoro va boshqa shaharlarda yangi madrasalar qurildi. Ularning aksarida diniy ilmlar bilan bir qatorda matematika, tarix, falsafa kabi dunyoviy fanlar ham o‘qitildi. Shayboniyxon bilan boshlangan an‘ana Ubaydullaxon zamonida davom etdi: forsiy hamda mo‘g‘ul yozuvidagi asarlar turkiy tilga tarjima qilindi. Bu esa o‘zbek tilining mavqei oshishiga xizmat qildi.

Adabiy muhit shakllandi

XVI asrda Mutribiy, Hasanxo‘ja Nisori, Hofiz Tanish Buxoriy kabi adabiyotshunoslar faoliyat yuritib, tazkiralar orqali adabiy jarayonni qayd etib bordilar. Bu davrni adabiy hayotning jonlanish davri deb atash mumkin. U Amir Abdullo Yamaniy, Xoja Muhammad Sadr kabi mashhur allomalardan ta’lim olgan. Ilm-fan vakillariga hurmat ko‘rsatish, ularni qo‘llab-quvvatlash uning siyosatining ajralmas qismi bo‘lgan.

Tarixiy manbalarda Ubaydullaxon obrazi.

Mas’ud Ko‘histoniyning “Tarixi Abulxayrxoniy”, Ro‘zbehonning “Mehmonnoma-yi Buxoro”, Mutribiy va Nisoriyning tazkiralari XVI asr adabiy jarayonini yoritib, Ubaydullaxonning davrdagi o‘rnini ko‘rsatadi. Ammo Sovet davri siyosati tufayli bu shaxsning merosi uzoq vaqt o‘rganilmay keldi. Bugun esa ularning ijodiga qayta nazar tashlash ilmiy zaruriyatga aylangan.

Xulosa. Ubaydullaxon Movarounnahr madaniy hayotida beqiyos iz qoldirgan shaxsdir. U uch tilda ijod qilgan shoir, hikmatnavis, adabiyot homiysi hamda ma’rifatparvar hukmdor sifatida tarixda o‘chmas iz qoldirgan. Uning davrida madrasalar qurilishi, tarjima ishlarining rivoji, adabiyotga e’tiborning ortishi — bularning barchasi XVI asrni ma’naviy yuksalish davriga aylantirdi.

Bugungi tarixshunoslik oldida turgan muhim vazifalardan biri — Ubaydullaxon merosini chuqur o‘rganish, Shayboniylar davri madaniy jarayonlarini keng ilmiy muomalaga kiritishdir.

Adabiyotlar

1. Abdullayev M. Ubaydiy hayoti va adabiy faoliyati. – Toshkent, 2000.
2. Muhammadyor ibn Arab Qatag‘an. Musaxxir al-bilod. – Yangi asr avlodi, 2009.
3. Muhammad Haydar. Tarixi Rashidiy. – Toshkent, 1996.
4. Ro‘zbehon Isfahoniy. Mehmonnoma-yi Buxoro. – Moskva: Sharq adabiyoti, 1976.
5. Vaqf-noma materiallari asosida: O‘zbekiston XVI asr agrar munosabatlari tarixi. – Toshkent: Fan, 1966
6. Rajabov Q. Qiziltepa tarixi. – Toshkent: Tamaddun nashriyoti, 2015.